



JASORAT VA MATONAT TIMSOLI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Bugun butun insoniyat, jumladan, xalqimiz ham boshidan sinovli kunlarni katta sabr va bardosh bilan o'tkazyapti. Pandemiya qarshi kurashishda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida yurtdoshlarimiz manfaatini ko'zlab belgilangan chora-tadbirlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bu ulkan yutuqlar xalqimiz ko'ngliga taskin berdi, ruhini ko'tardi, jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi. Bu yutuqlar mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimiga qaratilgan yuksak e'tibor hamda malakali mutaxassislar tayyorlashga berilgan katta rag'bat samarasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yurtdoshlarimizga yo'llagan murojaatlarida: «Bugungi kunda butun dunyo, insoniyat murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Mamlakatimizda epidemiologik vaziyatni jilovlash, aholi salomatligini har tomonlama himoya qilish uchun barcha choralar ko'rilmogda. Bu kurashning oldingi saflarida chinakam jasorat va matonat ko'rsatayotgan jonkuyar va olijanob shifokorlarimizga chuqur minnatdorchilik bildiraman», – deya soha vakillari mehnatini alohida e'tirof etdilar.

Darhaqiqat, joriy yilning 15-mart kundan e'tiboran yurtdoshlarimizning koronavirus infeksiyasi

yuzasidan tug'ilgan savollariga o'z vaqtida javob qaytarish va kerakli tibbiy maslahatlarni berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan Coll-markaz faoliyatiga Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining 200 nafardan ortiq malakali professor-o'qituvchilari hamda mutaxassislari jalb etilgan, ya'ni Coll-markaz operatorlari vazifasini oliy ma'lumotli va yuqori malakali yetakchi tibbiyot xodimlari bajarmoqdalar va aholini qiziqtirgan barcha savollarga o'z vaqtida javob berib kelishmoqda. Bu yerda 4 smenadan iborat tun-u kun – 24 saot davomida navbatchilik yo'lga qo'yilgan. Mutaxassislar uchun barcha zarur sharoit yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasiga koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha Respublika maxsus komissiyasining 2020-yil 31-martdagi 14-son yig'ilish bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 31-martdagi 97-sonli buyrug'iga muvofiq, Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti bakalavriati, shuningdek, magistratura va klinik ordinatura (rezidentura) bitiruvchilarini ishlash uchun 2020-yil 20-apreldan tibbiyot muassasalariga yuborilishi ko'zda tutilgan.

Bitiruvchilar davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, hayotlarida yangi qadam qo'yishdi va o'z mehnat faoliyatini shifokor-mutaxassis sifatida tibbiyot muassasalarida boshlashdi.

Bu o'z navbatida, shifokor sifatida, ushbu vaziyatda Respublika maxsus komissiyasining qarorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarga xayrixohlik bilan labbay, deb javob berishni, tengdoshlar va hamkasblarga ibrat bo'lishni taqozo etadi. Xalqimiz salomatligini muhofaza qilish yo'lida buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino bobomizning munosib vorislari sifatida bor bilim va tajribalarini ayamaskliklari lozim. Bu borada fidoyilik va jasorat ko'rsatib, sabr-toqat bilan barchadan bir saf oldinda turib, shifokorlik burchini ado etib, o'z faoliyatlarida jonbozlik ko'rsatib xalqimiz xizmatiga kamarbasta bo'lishlari zarur.

Zero, salomatlik inson uchun ulug' ne'matdir. Shu sababli ham shifokorlik kasblar ichra eng sharafli, deya e'tirof etiladi. Darhaqiqat, inson hayotiga daxldor bo'lgan o'ta mas'uliyatli kasbni zimmasiga olgan, bu yo'lda fidoyilik bilan mehnat qilib kelayotgan har bir tibbiyot xodimi e'zozga munosibdir.

Ushbu murakkab vaziyatda sog'liqni saqlash sohasi tizimi xodimlari zimmasidagi vazifalarni sharaf bilan bajarib kelayotganini ko'rib, ularga yurtdoshlarimiz o'z minnatdorchiliklarini bildirayotir. O'ylaymanki, ToshPTI'da ta'lim olgan yoshlar ham shifokorlik burchiga chin dildan kirishib, insoniyat boshiga tushgan og'ir sinovni yengishda bor bilim va tajribalarini belgilangan muassasalarda soha mutaxassisi sifatida yurtdoshlarimiz salomatligini mustahkamlashga katta hissa qo'shishadi.

“ZULFIYA MUKOFOTINI OLISH OSONMI?”



Oilada kenjatoy bo‘lish osonmi? Mohira ham oilasining yakka-yu yolg‘iz qizchasi edi. Bilmadim, bu mitti qizaloq, katta bo‘lganidan keyin kimyo bo‘yicha Mendeleev olimpiadasi, jahon olimpiadasi sovrindori bo‘lishi yana Zulfiya mukofotini olish haqida o‘ylanmikan?

“Zulfiya mukofotini olish osonmi yo qiyinmi?” – so‘rayman men undan. “Oson, albatta, – deydi u, – buning uchun boshqa tengqurlari uxlaganda uxlamasdan, boshqa tengqurlari dam olganda dam olmasdan, mehnat qilib tinmay o‘z ustida ishlasa va asosiy maqsadi mukofot olish emas, balki yetuklikka erishish bo‘lsa. Fikrimcha, har birimizning qaysidir yutuqlarga erishishimizda, cho‘qqilarni zabt etishimizda va hayot yo‘limizni to‘g‘ri tanlashimizda oilaning, ota-onalarning o‘rni nihoyatda katta”. Mohiraning ikki akasi Behzodbek va Boburbeklar ham singillari Mohiradek avval Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining litseyida o‘qishgan. Ular kimyo fani bo‘yicha Xalqaro Mendeleev va Jahon olimpiadalarida oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlanishgan.

Mohiraning oyijonisi Qibray qishloq vrachlik punktining laboranti. U qizining akalari yo‘lidan borib, yutuqlarini qo‘lga kiritishini, ijodkor bo‘lishini orzu qilardi va shu niyatlarini qiziga ko‘p takrorlard. “Albatta, – derdi onasi, – muvaffaqiyatning kaliti o‘z qo‘lingda, yoshligingda qiyalib o‘qisang, keyinchalik rohatini ko‘rasan”. “Oilaviy an‘analimizni davom ettir, qizim, – derdi ishonch bilan dadasi, – hali akalaringdan o‘zib ketgin”.

Ota-onasining ishonchi Mohiraga katta rag‘bat edi. Endi u litseydagi akalari Behzodbek va Boburbek, shuningdek, ustozlari Muhsimov Javlonbek tayyorlaydigan xalqaro va jahon olimpiadachilari guruhiga qatnash boshladi. Bu guruhda qatnashish va birinchi kursda o‘qish Mohira uchun juda og‘ir bo‘ldi. Axir guruhda ancha yillardan beri tayyorlanib yurgan nihoyatda bilimli o‘quvchilar ko‘p, tayyorlov dasturi esa juda chuqur-

lashtirilgan edi. Yechiladigan masalalar keng qamrovli bo‘lib, ularni yechishga bir soatlab vaqt sarflash kerak bo‘lar edi. Mohira ko‘pincha oxirida qolardi. Kechalari uxlamay o‘qib, masalalarni yechib chiqsa ham, olimpiadadagi saralash bosqichidan o‘tolmasam-chi, degan xayol uni tark etmasdi. Yana buning ustiga aynan shu paytga kelib litseyda o‘qish muddati bir yilga qisqartirildi. Tushkun kayfiyat yanada kuchaydi. Oilasi va ustozlarining qo‘llab-quvvatlashi tufayli Mohira bu tushkunlikni yengib o‘tdi. Jahon olimpiadasi uchun kuchaytirilgan guruhga ertalab sakkizdan kelib, to tushlikkacha – litsey darslari boshlanguncha masalalar ishlardi, laboratoriya ishlarini o‘zini ayamay bajarardi. Ularning guruhi uchun litseyda maxsus laboratoriya va dars xonasi ajratilgan edi. Bundan tashqari, guruh a‘zolari Milliy universitetning kimyo fakultetining analitik kimyo laboratoriyasi Organik kimyo va o‘simliklar kimyosi instituti organik kimyo laboratoriyasiga, o‘zimizning institutga ham borishar edi. Guruh a‘zolari yakshanba kuni ham dam olishmasdi. Kunlari laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan o‘tardi. Albatta, mehnatlari natijasiz qolmadi. Yil oxiriga borib Mohira bilimlarining ancha kuchayganini sezdi. Bilimda, misollarni ishlashda ko‘pchilik ilg‘or o‘quvchilardan ilgari lab ham ketdi.

U jahon olimpiadasida qatnashish uchun to‘rtta bosqichdan: litsey olimpiadasi, shahar olimpiadasi, shahar saralash olimpiadasi, eng so‘ngida respublika saralash bosqichidan o‘tdi. Ikkinchi o‘rinni egallab jahon olimpiadasida qatnashish imtiyozini qo‘lga kiritdi. Mohiraning 1-olimpiadasi Sankt-Peterburg shahrida 2019-yil aprel oyida bo‘lib o‘tdi. Bu olimpiadada u bronza medalni qo‘lga kiritdi. Oldinda esa uni jahon olimpiadasi kutmoqda edi. Shuning uchun ham to‘xtab qolish va hordiqqa aslo vaqt yo‘q edi. Mohira Sankt-Peterburg olimpiadasining laboratoriya turida 75 balldan 25 ballgina yig‘adi. Bu ko‘rsatgich uni bronza medaliga sazovor bo‘lishiga yetgan bo‘lsa ham, natija uni doim o‘z ustida ishlashga chorlar edi. Laboratoriya ishlariga katta e‘tibor bilan qarash va ularga ko‘p vaqt ajratishi uning Fransiyadagi Jahon olimpiadasida laboratoriya turida 40 balldan 39, 67 ball yig‘ishga imkon yaratdi. 2019-yil Mohira uchun juda unumli, barakali, omadli keldi. U kimyo fani bo‘yicha ikkita yirik olimpiadada sovrindor bo‘ldi va bu yutuqlar unga institutga imtihonsiz kirish imkoniyatini berdi. Institutda ham Mohira oliy ta‘lim muassasasi o‘zi tahsil olayotgan fakultetining ijtimoiy hayotida faol qatnashdi. O‘qish va jamoatchilik ishlaridagi faolligi uchun institut xotin-qizlar qo‘mitasi Mohira Boltayevaga Zulfiya mukofotini olish uchun tavsiya berdi. Ko‘rganingizdek bu tanlovda ham Mohira g‘olib chiqdi. Kelajakda endi uni yangi tanlovlar va yangi ishlar kutmoqda.

Kavsar TURDIYEVA


IZLAGAN IMKON TOPAR

Butun insoniyat murakkab davrni boshdan kechirayotgan shu kunlarda, mamlakatimizda epidemiologik vaziyatni jilovlash, aholi salomatligini har tomonlama himoya qilish uchun karantin qoidalari joriy etilgan. Bu sinovli damlarda xalqimiz bir musht bo‘lib harakat qilmoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yurtdoshlarimizga yo‘llagan murojaatlarida bugungi kunda uy sharoitida tahsil olayotgan talaba va o‘quvchi yoshlarga qarata: «Aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor o‘tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o‘zlashtiring. Kitob o‘qing, bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang», – deya bildirgan yuksak ishonchi barcha yoshlarni ruhlantirdi.

Xususan, men ham karantinda uyda o‘tirgan bo‘lishimga qaramay izlanishlarimni davom ettirmoqdaman.

Ibn Sino nomli yosh biologlar va kimyogarlarning maktabida Xalqaro Olimpiadaga tayyorlash uchun guruh tashkil etib, har bir chorakda Xalqaro “Mega-Talant” nomli olimpiadani o‘tkazib kelar edim. Bu safar esa ushbu olimpiadani 10-15 nafar o‘quvchilardan ham kengroq qamrovdagi maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazishni niyat qildim. Ukam va oyimning yordami bilan olimpiadaga 40 dan ortiq o‘quvchilarni jalb qila oldim. Bu safar olimpiadani onlayn tashkil etdik va u nafaqat kimyo fani, balki ingliz tili, biologiya va matematika fanlari bo‘yicha ham bo‘lib o‘tdi. Yurtimizdagi 10 dan ortiq maktablardan o‘quvchilar qatnashdilar. Albatta, ushbu olimpiadani o‘tkazish katta mas’uliyat va matonat talab qildi. Ammo bu ezgu ish yo‘lida tinmay mehnat qildim, izlandim. Ushbu tashabbusimni yaqinlarim moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab turishdi. Bolalarni o‘qishga yanada qiziqtirish uchun g‘oliblarga pul mukofotlari e‘lon qildim.

Ushbu olimpiadaning afzalliklari shundaki, olimpiada bir bosqichda juda qisqa vaqt oralig‘ida o‘tkazilishiga qaramasdan, maktab o‘quvchilaridan e‘tibor va zehnni talab qiladi. Shoshilib 20 ta testni ishlayman degan o‘quvchining xato qilish ehtimoli juda yuqori. Buning sababi shundaki, testlar ichida bir o‘qib, bir javob beradigan savol-



lar kam, testlarning asosiy qismi ishtirokchidan bir o‘qib, keyin berilgan ma’lumotni o‘zlashtirib, so‘ngra javob berishni talab qiladigan savollardan tashkil topgan.

Xalqaro “Mega-Talant” olimpiadasida shu kungacha 48899 ta maktabdan 1 milliondan ortiq o‘quvchilar qatnashgan. Olimpiadaning tashkilotchilari, har bir olimpiada mavsumi tugagach g‘oliblarga diplomlar va ularning ota-onalariga tashakkurnomalar berishadi. “Mega-Talant” saytida barcha ishtirokchilar nafaqat o‘zlarining natijasini, balki ularning umumiy hisobda qanday pog‘onada turganlarini bila oladilar. Bu degani, o‘quvchi dunyo miqyosida tengdoshlarining bilim saviyasini o‘zining nisbatan baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Har bir ishning o‘z xosiyati bor. Murakkab epidemiologik vaziyat sabab karantinda bo‘lganimiz ham bizga yangi imkoniyatlarni berdi. Ta’limda va boshqa sohalarda masofaviy ishlarni yo‘lga qo‘yishga keng imkon yaratdi. Bu vaziyatdan oqilona foydalangan yoshlar har bir daqiqani g‘animat bilib zamonaviy imkoniyatlardan keng foydalandi. Karantin qoidalarga to‘liq rioya etgan holda ta’lim oldi, turli fan olimpiadalari qatori, Xalqaro “Mega-Talant” olimpiadasida ham faol qatnashdi.

Hozirda olimpiada natijalarini yuklash va tekshirish ishlari olib borilmoqda. Tez kunlarda g‘oliblarni aniqlab natijalarni e‘lon qilamiz. O‘ylaymanki, kelgusi – karantindan so‘ng ham bunday ishlarni davom ettiramiz.

Islom KARIMOV,
1-Pediatriya fakulteti,
113-guruh talabasi

SAXOVAT VA KO'MAK

Xalqimiz o'z quyoshi va ona zamini kabi saxovatli desak aslo mubolag'a emas. Negaki, u an'analari va odatlari, tarixi bilan mazkur fikrning haqiqatligini yaqqol tasdiqlaydi. Jahon urushi yillari O'zbekistonga Rossiyadan 100 ta sanoat korxonasi ham evakuatsiya qilindi. Ma'lumki, g'arbdagi tumanlar okkupatsiyasi va harbiy harakatlar tufayli sobiq ittifoq o'zining asosiy qishloq xo'jalik markazlaridan ayrildi. Mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlash keskin masala sifatida ko'ndalang bo'ldi. O'zbekiston paxta bo'yicha rejasini bajarishi bilan birgalikda ichki rezervlar hisobiga o'z xalqini oziq-ovqat bilan ta'minlashi kerak edi. Ammo O'zbekiston oziq-ovqat bilan nafaqat o'z aholisini, balki armiyani va fashistlardan tozalangan hududlardagi aholini ham ta'minladi.

1941-yil yoz oxiridan yurtimizga evakuatsiya qilingan aholi to'la eshelonlar kela boshlashdi. Shunda ularni qabul qilish va joylashtirish bo'yicha komissiya ish boshladi. Xalqimiz ulkan mehr-oqibat ko'rsatdi. Ularga joy berdi, kiyim, oziq-ovqat bilan ta'minladi. Evakuatsiya qilingan bolalarga eng katta e'tibor qaratildi. Toshkent shahri ayollari xalqimizga murojaat bilan chiqishdi. Unda evakuatsiya qilingan bolalarga g'amxo'rlik qilishga chorlashgan edi. Shu davr mobaynida O'zbekiston ochlik va o'limdan 1,5 mln aholini qutqardi. Deyarli 300000 ta yetim bola uchun O'zbekiston ikkinchi uy bo'lib qoldi. Ularning barchasi bu yerda mehr va g'amxo'rlik ko'rib, yangi oilaga ega bo'lishdi.

Faqatgina temirchi Shoahmad Shomahmudovlar oilasi 15 ta turli millat vakillari bo'lgan bolalarni o'z oilasiga oldi.

Bundan 40 yilcha avval Moskvadagi jurnallardan biriga shu oila haqida material tayyorlash uchun borganimda Bahri aya o'sha yillardagi xotiralari haqida gapirib bergan edilar. Bolalari ham katta bo'lib qolgan, har birining o'z oilasi bor edi. Farzandlar ham Bahri aya va Shoahmad aka haqida mehr bilan so'zlardilar. Maqolam chiqqach bu oilaga ofarin aytgan, uning qahramonligiga qoyil qolgan ko'plab o'quvchilardan xorijdan xatlar kelgan edi. Ayniqsa, Hindistondan kelgan xatlar ko'p edi. Bag'rikeng o'zbek xalqi diyoriga kelgan olimlar-u shoirlar eng go'zal asarlarini yaratdilar, ilmiy izlanishlar olib bordilar.

O'zbekistonda bu uchun ularga barcha sharoit yaratilgan edi. O'zi yemay mehmonga yedirgan xalq – o'zbeklarning qoniga saxovat nomli go'zal fazilat singib ketgan.

Esimda hozirgi Sankt Peterburg universitetida o'qishga borganimda yonimga yuqori kursda tahsil olayotgan chechen yigiti kelib: "Agar bu yerda seni kimdir xafa qilsa yoki qandaydir yordam kerak bo'lsa aytgin, albatta, yordam beramiz. Bizni akalaring deb bil. O'zbeklar bizning otabobolarimiz o'z yeridan ko'chirilganda qabul qilgan xalq", – degani haligacha esimda.

Ezgulik va saxovatli qalb egalari, mehmondo'st va bag'rikeng xalqning bir vakili – uning farzandi bo'lish nechog'li baxt. U mahalla-ko'yidagi, o'z atrofida gilarni hamda yordamga muhtoj hech bir inson oldidan loqayd o'tib keta olmaydi.

K. Turdiyeva

KELINGLAR, AZIZLAR, UYDA QOLAYLIK!

*Yana ko'p bahorni ko'rmoqlik uchun,
Bag'ributunlikda yurmoqlik uchun,
Armonlarsiz xandon kulmoqlik uchun
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*Bekorchi qadam-la balo boshlamay,
Chaqnagan ko'zlarni duv-duv yoshlamay,
Ming-ming pushaymonni dilga tashlamay,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*Bizlarni qoldirib uyda-izzatda,
Shifokorlar jangda: tun-kun xizmatda,
Buni qabul qilib ne'mat sifatda,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*Dunyoning ko'zida tashvishli nigoh –
Yurtboshlarga ulkan o'y keldi nogoh,
Elga zarar qilmay, bo'lgancha ogoh,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*Har bir sinov asli Allohdan imkon,
Dovondan o'taylik hammamiz omon,
Oila bag'rini to'ldirib shodon,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*


*Hayotning qadrini anglab yurakdan,
Qo'limiz duoda, so'zlar – tilakda,
Shodlanib har bitta ezgu darakdan,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*G'alaba garovi: sabr va tartib,
Eng chekka joygacha Toshkentdan tortib
Olam va odamning gardini artib,
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

*Niqobda bo'lsak ham niqobsiz yuzlar,
Yaxshi xabarlarini izlaydi ko'zlar,
Biz hozir uydami, qaydasiz sizlar?
Kelinglar, azizlar, uyda qolaylik!*

K. Turdiyeva



 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, T.S. A'zamho'jayev, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas'ul: R. G'o'chchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 Cho'pon nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko'chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nusxa. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	---	--	---